

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARGA XIZMAT KO‘RSATISHNING MUAMMOLARI**

*Tursunov Faridun Mustafoyevich*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,*

*“Bank ishi” kafedrası assistenti*

[tursunovfaridun4330@gmail.com](mailto:tursunovfaridun4330@gmail.com)

*Shavqiddinov Akbar Zulfiddinovich*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

[akbarzulfiddinovich@gmail.com](mailto:akbarzulfiddinovich@gmail.com)

**Annotatsiya.** O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi bank xizmatlarini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishning muammolari o‘rganib chiqildi hamda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mualliflarning taklif va tavsiyalari berildi.

**Kalit so‘zlar:** bank xizmatlari, bank servisi, kredit, bank xizmatlari, lizing, faktoring, hisob-kitob operatsiyalari, iste‘mol portfeli, ishonch xizmatlari, fond va kredit funktsiyalari, jismoniy shaxslar.

**Abstract.** The increasing deepening of economic reforms in the Republic of Uzbekistan leads to the need to effectively manage banking services and constantly improve it. In this article, the problems of providing services to individuals in commercial banks of the Republic of Uzbekistan were studied and suggestions and recommendations of the authors were made to eliminate these problems.

**Keywords:** banking services, bank service, credit, banking services, leasing, factoring, settlement operations, consumer portfolio, Trust Services, Fund and credit functions, individuals.

## **KIRISH**

Zamonaviy axborot jamiyatidagi bank xizmatlari iqtisodiy sektorning muhim qismini egallay boshladi, uni o‘rganish bir qator nazariy va amaliy bilim usullarisiz mumkin emas, ular orasida induksiya, mantiqiy tahlil, deduksiya, iqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy qarorlarni optimallashtirish metodologiyasi va boshqa ko‘plab usullar mavjud. Ushbu maqolani ko‘rib chiqishning maqsadi bank kredit siyosati va uning ahamiyatini bilish, shuningdek kredit siyosatining O‘zbekiston Respublikasida rivojlanish istiqbollari aniqlashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>1</sup> imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi - O‘zbekiston Respublikasi moliya va pul-kredit tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Respublikamizda bank tizimi ikki pog‘onali bank tizimidan iborat bo‘lib, o‘z ichiga Markaziy bank va tijorat banklarini oladi. Markaziy bankning tijorat banklari bilan hamda tijorat banklarining o‘z mijozlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari, jumladan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilangan. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar[2,3].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

O‘zbekiston Respublikasida o‘tish davri sharoitida radikal iqtisodiy islohotni amalga oshirishda bank sohasi rivojlanishini yangi bosqichini ochdi. “Jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko‘rsatish bank faoliyatidagi asosiy sohalardan biridir. Bu soha bank uchun juda foydali hisoblanadi” [4]. Ushbu o‘zgarishlarni amalga oshirishda nafaqat milliy banklar, shuningdek xorijiy banklarining funksiyalarini o‘rganish va yangi shakllarni joriy etish hamda jismoniy shaxslar bilan ishlash usullarini takomillashtirish zarur.

Tijorat krediti bank tashkilotlari taklif qiladigan standart kreditdan juda ko‘p farqlarga ega(1-jadval).

#### **Tijorat kreditining bank tashkilotlari taklif qiladigan standart kreditlardan farqlari**

**1-jadval**

<b>Mezon</b>	<b>Tijorat kreditlari</b>	<b>Bank kreditlari</b>
Qarz beruvchi	Tovar yetkazib berish bo‘yicha bir-biri bilan turli shartnomalar tuzadigan turli yuridik, jismoniy shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar	Faqat litsenziyalangan bank muassasalari

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.

Yuborish shakli	Tovar	Pul
Foiz stavkalari	Past, 3 foizdan 15 foizgacha	Yuqori va turli kreditlar uchun ular hatto 50% ga yetishi mumkin
Kredit to'lovlari	Tovar narxiga kiritilgan	Berilgan kredit miqdoriga bog'liq bo'lgan qat'iy yoki o'zgaruvchan foiz sifatida aniqlanadi

Shunday qilib, tijorat banklari tijorat kreditidan sezilarli farq qiladigan kreditlar beradi, shuning uchun bu tushunchalarni chalkashtirib yubormaslik kerak.

2023 yilning II choragida iqtisodiyotda pul-kredit sharoitlari Markaziy bank asosiy stavkasining yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirilishi, umumiy inflyasiyaning pasayuvchi dinamikasi bilan birga bazaviy inflyasiya va inflyasion kutilmalarning nisbatan yuqori saqlanib qolishi fonida “Nisbatan qat'iy” darajada shakllandi. Ushbu davrda hukumat xarajatlarining ko'payishi bank tizimi likvidligini oshiruvchi asosiy omillardan bo'lib, ichki valyuta bozorida talabning ortishi hisobiga Markaziy bank intervensiyalari va naqd pul bilan bog'liq amaliyotlar likvidlikni kamaytiruvchi ahamiyat kasb etdi. Natijada, tizimdagi qo'shimcha likvidlik hajmi chorak davomida qisqarib bordi va bu, o'z navbatida, monetar omillarning inflyasiyaga oshiruvchi ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

**Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i to'g'risida, kreditlar turlari bo'yicha ma'lumot<sup>2</sup>**

**2-jadval**

Ko'rsatkich nomi	01.12.2022 y. (mlrd so'm)	01.12.2023 y. (mlrd so'm)	O'zgarishi, (foizda)
Jami kredit qoldig'i	382 078	465 493	22%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	97 698	146 709	50%
Ipoteka kreditlari	45 183	57 265	27%
Mikroqarzlar	14 382	23 660	65%
Iste'mol kreditlari	22 047	43 865	99%
Ta'lim kreditlari	1 830	4 701	157%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	14 229	17 055	20%
Boshqa kreditlar	29	163	470%
<b>Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i</b>	<b>284 380</b>	<b>318 784</b>	<b>12%</b>

<sup>2</sup> www.cbu.uz

Kredit tashkilotlari bo‘lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	267 413	304 866	14%
Lizing va faktoring	1 675	1 997	19%
Banklararo kreditlar	1 155	1 143	-1%
Mikrokreditlar	9 463	5 288	-44%
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	4 673	5 490	17%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib oxirgi 12 oyda turibdiki jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i salmog‘i o‘shish dinamikasiga ega bo‘lmoqda. Bu esa banklardagi kreditlash tizimida muammoli kreditlarning ko‘payib ketayotganidan dalolat bermoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish mavzusidagi tadqiqotlarni tahlil qilishda biz quyidagicha xulosa qildik:

- bank tizimining zamonaviy bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi, ya’ne bank xizmatlari bozorida ishlaydigan kredit tashkilotlari moliya bozorining turli segmentlarida to‘liq to‘plangan tajribaga ega ekanliklari sababli, iste’mol kreditlarini faol rivojlantirish, bank kartalaridan foydalanish doirasini kengaytirish, axborot va dasturiy ta’minot tizimlarini faol ravishda shakllantirishga ishtirok etish orqali mijozlarning kredit tarixi, banklarni sug‘urtalash tizimini rivojlantirishda jismoniy shaxslarning omonatlari, texnologiyalarni joriy etish va kerakli bank mahsulotlarini yaratish, aholi bilan ishlash uchun infratuzilmalarni shakllantirish;

- savodxonlik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi, ya’ne jismoniy shaxslarning bank xizmatlarini tavsiflovchi moliyaviy savodxonliklarining mavjudligi bank sektorining foydasiga ishlaydi;

- mahalliy bank faoliyatini rivojlantirishda sektorlarni yuqori o‘shish sur‘atiga o‘zaro raqobatning kuchayishi natijasida ta’sir ko‘rsatuvchi ba’ze tijorat banklari va tijorat banklarining jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishda faollashishi ta’sir ko‘rsatadi;

Banklar tomonidan mijozlarga erkinliklar yaratish va ularni o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga o‘tishga asoslanishi zarur deb hisoblaymiz.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi O‘RQ-582-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son.
4. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari

aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.

5. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.
4. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
5. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой., 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр, 2015. – 592 с.
6. Корнилова, Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Корнилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.